

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 501 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА синхронного двигателя на основе измерения внешнего магнитного поля	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHIQARISH QUUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish Texnologiyasi	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOĖO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUHARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTACIYA	471
Usmanova Aziza Baxodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'yurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	

XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURSLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI

Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Email: p.mamadaliyev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda suveren kredit reytinglarining xalqaro moliya bozorlaridan moliyaviy resurslarni jalb etishdagi o'rni O'zbekiston misolida tahlil etilgan. S&P, Fitch va Moody's reytinglari mamlakat risk premiumi, yevroobligatsiyalar bo'yicha kupon stavkalari hamda investorlar ishonchi bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Amaldagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tashqi qarz barqarorligining reyting dinamikasiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholangan hamda tadqiqot natijalari suveren reytingni mustahkamlash orqali xalqaro moliya bozorlarida O'zbekistonning moliyaviy holatini barqarorlashtirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: suveren kredit reytingi, xalqaro moliya bozorlari, moliyaviy resurslarni jalb etish, yevroobligatsiyalar, mamlakat riski, tashqi qarz barqarorligi.

Abstract. This study analyzes the role of sovereign credit ratings in attracting financial resources from international financial markets, using Uzbekistan as a case study. The ratings from S&P, Fitch, and Moody's are examined in relation to the country's risk premium, eurobond coupon rates, and investor confidence. The impact of current macroeconomic indicators and external debt sustainability on rating dynamics is assessed, and the research explores ways to stabilize Uzbekistan's financial position in international financial markets by strengthening its sovereign rating.

Keywords: sovereign credit rating, international financial markets, attraction of financial resources, eurobonds, country risk, external debt sustainability.

Аннотация. В данном исследовании проанализирована роль суверенных кредитных рейтингов в привлечении финансовых ресурсов с международных финансовых рынков на примере Узбекистана. Рейтинги агентств S&P, Fitch и Moody's рассмотрены в контексте странового риск-премиума, купонных ставок по еврооблигациям, а также доверия инвесторов. Оценено влияние действующих макроэкономических показателей и устойчивости внешнего долга на динамику рейтингов, а также исследованы пути стабилизации финансового положения Узбекистана на международных финансовых рынках за счёт укрепления суверенного рейтинга.

Ключевые слова: суверенный кредитный рейтинг, международные финансовые рынки, привлечение финансовых ресурсов, еврооблигации, страновой риск, устойчивость внешнего долга.

KIRISH

Suveren kredit reytinglari mamlakatning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi, tashqi qarz mablag'larining qiymatini belgilash hamda xorijiy investorlar ishonchini shakllantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Buni inobatga olgan holda, O'zbekiston 2018-yildan boshlab global reyting tizimida faol ishtirok etishni boshladi. Xususan, S&P Global Ratings agentligi 2018-yil 21-dekabrda mamlakatga "BB-/B" darajasida va "barqaror" prognoz bilan birinchi suveren kredit reytingini berdi. Keyinchalik Fitch Ratings ham O'zbekistonga "BB-" reyting darajasini belgiladi, 2019-yildan boshlab esa Moody's Investors Service tomonidan mamlakatning kreditga layoqatliligi "B1/Ba3" diapazonida baholana boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekistonning suveren reytinglari ijobiy dinamikani namoyon etib, S&P va Fitch tomonidan "BB" darajasida "barqaror" kutilma bilan, Moody's tomonidan esa "Ba3" darajasida "ijobiy" prognoz bilan baholanmoqda. Bu holat yaqin yillarda mamlakat reytingining yanada yaxshilanish ehtimoli yuqori ekanini ko'rsatadi. Mazkur o'sish 5–6 foiz atrofidagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, davlat qarzining mo'tadil



darajada saqlanishi, davlat korxonalarini isloh qilish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda subsidiyalangan kreditlar ulushining qisqarishi kabi makroiqtisodiy va institutsional omillar bilan izohlanadi.

Suveren kredit reytinglari O'zbekiston uchun faqat axborot xarakteriga ega ko'rsatkich bo'lib qolmasdan, balki xalqaro moliya bozorlariga chiqishni kengaytirish, investorlar bilan muzokaralarda mamlakatning ishonchlilikini mustahkamlash hamda tashqi moliyaviy resurslarni nisbatan past xarajatlar bilan jalb etishning muhim instrumentiga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanish darajasi mamlakat iqtisodiy o'sishi va jahon xo'jaligidagi o'rnini belgilab beradi. Xalqaro qarz munosabatlari hamda kapitalning bir yurtidan boshqa mamlakatlarga oqimi mintaqaviy iqtisodiyot taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, shuningdek, suveren reyting agentliklarining baholash amallari natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni o'rganish maqsadida so'nggi o'n yilliklarda qator xalqaro institutlar (XVF, BMT, Jahon banki, ETTB, OTTB va boshqalar), iqtisodchi-olimlar hamda nufuzli ilmiy nashrlar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Bu mavzu bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, suveren kredit reytinglari davlat moliyasi barqarorligi va tashqi moliyalashtirish qiymatini belgilovchi markaziy omil sifatida qaraladi. A. Burhanov va F. Sindarov [1,2] O'zbekiston misolida reytinglar xalqaro imidj, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda budjet taqchilligini tashqi manbalar hisobidan qoplash imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan.

Xalqaro adabiyotlarda suveren kredit reytinglari mamlakatlarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi va qarz resurslari narxini belgilovchi asosiy axborot signali sifatida talqin etiladi. Cantor va Packer [3] reyting darajasi asosan aholi jon boshiga daromad, inflyatsiya, tashqi qarz yuklamasi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va defolt tarixi kabi omillar bilan izohlanishini ko'rsatadi. IMF tadqiqotlari reyting mavjudligi birinchi bor xalqaro obligatsiya bozoriga kirayotgan davlatlar uchun markaziy "filtr" vazifasini bajarib, emissiya hajmi va muddatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Kim [4] hamda Afonso [5] ishlari reyting yangiliklari suveren obligatsiyalar spredi, kapital oqimlari va moliyaviy sektor rivojlanishi bilan kuchli bog'liqligini empirik isbotlab bergan. Reinhart va Rogofflarning [6] "debt intolerance" konsepsiyasi esa past reytingli rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi qarzning "xavfsiz" chegaralari ancha past bo'lishini ko'rsatib, reyting–qarz barqarorligi munosabatini chuqurlashtiradi. So'nggi tadqiqotlar (Kowalewski [7]) reytingga ega bo'lish moliya bozorlarining chuqurlashuvi, mahalliy valyutadagi obligatsiyalar va xususiy sektor kreditlari kengayishiga xizmat qilishini ham qayd etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston bo'yicha mahalliy tadqiqotlar suveren reytinglar mamlakatning xalqaro moliya bozorlaridagi mavqeini, investorlar ishonchi va davlat qarzini boshqarish strategiyasini optimallashtirishdagi ahamiyatini alohida qayd etib o'tgan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-uslubiy yondashuvlar hamda amaliy statistik tahlil usullari uyg'un qo'llanilgan. Suveren kredit reytingi, yevroobligatsiyalar kupon stavkalari, mamlakat risk spreadi va tashqi qarz ko'rsatkichlari bo'yicha qator yillik ma'lumotlar S&P, Fitch, Moody's, Markaziy bank, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida yig'ilgan. Yig'ilgan ma'lumotlar taqqoslama tahlil yordamida reyting dinamikasi bilan moliyaviy resurslar jalb etish shartlari o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Tahlil 2018–2025-yillar davri kesimida olib borilib, qo'shimcha ravishda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda suveren kreditlarning ahamiyatini to'g'ri anglagan holda, 2018-yildan boshlab O'zbekiston ham o'zining suveren kredit reytingini baholata boshladi. Dastlab, S&P agentligi O'zbekistonning reytingini 2018-yilning dekabrda baholagan bo'lsa, bugungi kunda Fitch va Moody's agentliklari ham O'zbekistonning suveren kredit reytingini baholamoqda.

Agentliklar har yili ikki marotaba O'zbekistonning reytingini baholaydi va ushbu jarayonda respublikadagi eng so'nggi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qiladi. 2019–2020-yillar davomida S&P agentligi tomonidan 21 mamlakatning kredit reytingi pasaytirilib, 13 mamlakat, jumladan O'zbekistonning reyting kutilmasi "salbiy" darajaga tushirilgan edi. Ushbu holat O'zbekistonning tashqi qarzi so'nggi yillarda nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi. Biroq, so'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi qarzi muttasil o'sib borayotganligiga qaramay, bu qarzlarni iqtisodiy o'sishni jonlantirishga xizmat ko'rsatganligi sababli reyting kutilmasi "barqaror" sifatida baholanmoqda. Xalqaro valyuta fondining hisobotida ta'kidlanishicha, 2024–2025-yillarda YalMning o'sishi 5.4–5.5 %ni tashkil etib, tashqi qarzning YalMga nisbati 60 % atrofida saqlanib qoladi. Shuningdek,

to'lov balansi kelgusi ikki yilda 7.1–7.6 % atrofida saqlanib qolishini inobatga olsak, kelgusi yillarda ham reyting barqarorligicha saqlanib qolish ehtimoli mavjud.

1-rasm ma'lumotlari 2017–2025-yilning 1-iyul holatiga O'zbekiston davlat qarzining miqdori ham, tarkibi ham bosqichma-bosqich o'sib borganini ko'rsatadi. Tashqi qarz 2017-yildagi 7,6 mlrd dollardan 2025-yilga kelib 36,4 mlrd dollargacha ko'paygan bo'lsa, ichki qarz 4 mlrd dollardan qariyb 7 trln so'mgacha oshgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi 2017-2025-yil 1-iyulga qadar dinamikasi¹

Davlat qarzining YalMga nisbati 2017-yildagi 16,7 %dan 2020-yilda 35,2 %gacha tez sur'atlarda ko'tarilgan, keyingi yillarda esa 32–35 % atrofida nisbatan barqarorlashgan. Tashqi qarzning YalMga nisbati ham 2019–2021-yillarda 23–31 % diapazonida shakllanib, so'nggi yillarda biroz pasayish kuzatilmoqda. Bu holat hukumatning qarz olish hajmini iqtisodiy o'sish sur'atlari, infratuzilma loyihalari va budget taqchilligini moliyalashtirish ehtiyoji bilan muvofiqlashtirayotganini anglatadi. Shu bilan birga, tashqi qarz ulushining yuqoriligi ichki bozorni chuqurlashtirish, milliy valyutadagi instrumentlarni kengaytirish va qarz portfeli risklarini ehtiyotkor boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta fondining 2024-yilning iyul oyidagi O'zbekiston bo'yicha hisobotida O'zbekistonning tashqi qarzining YalMga nisbati bo'yicha boshqacha statistika berilgan. Unga ko'ra, 2024-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston tashqi qarzining YalMga nisbati deyarli 61 %ni etishi kutilmoqda, kelgusi 5 yillik istiqbolda, ya'ni 2029-yilda bu ko'rsatkich 10 %ga pasayib, 51 % bo'lishi prognoz qilingan. Bu yerda e'tibor beradigan jihat shundaki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat qarzi statistikasini taqdim etgan bo'lsa, Xalqaro valyuta fondi tashqi qarz statistikasini taqdim etgan. Bunda tashqi qarz deganda uning tarkibiga davlat va xususiy sektor (davlat tomonidan kafolatlangan va kafolatlanmagan) tomonidan olingan umumiy qarz nazarda tutiladi.

“Katta uchlik”ka kiruvchi yana bir reyting agentligi Moody's reyting agentligi bo'lib, O'zbekiston reytingini 2024-yil 16-iyulda Ba3 darajada baholadi, ya'ni oldingi baholashdagi darajani o'zgartirmay qoldirdi. Bu reyting agentligi ham 2019-yildan buyon O'zbekiston reytingini baholab kelmoqda.

Ushbu agentlik hisobotidan shuni xulosa qilish mumkinki, koronavirus pandemiyasi va geosiyosiy kelishmovchiliklar oqibatida vujudga kelgan salbiy iqtisodiy jarayonlarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti bardoshlilikni namoyon etib, barqaror o'sish ko'rsatkichlarini qayd etmoqda. Biroq siyosiy mojarolarning cho'zilishi O'zbekiston savdo balansi va xorijdan O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmiga ta'sir qilib, monetar siyosatga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fiskal va monetar instrumentlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi samaradorligi oshib borar ekan, Moody's kabi boshqa agentliklar tomonidan ham O'zbekistonning reyting darajasi yaqin yillarda oshirilishi shubhasiz.

Moody's reyting agentligining emitent reytingini qanday metodologiya asosida baholashini ma'lum darajada o'rganish, qaysi omillar asosida baholashini bilish emitentlar reytingi haqida ko'proq ma'lumot olishning muhim usuli hisoblanadi. Agentlik emitentlar reytingini baholashda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga tayanadi va ushbu metodologiyada reytingni baholashdagi asosiy omillar sifatida to'rtta omil keltirilgan.

Agentlik reytinglarni baholashda yig'ilgan ma'lumotlarni 4 guruhga ajratadi, so'ngra tahlillarni yana ma'lum guruhlariga birlashtirib, emitentlarning umumiy reytingini baholaydi. Iqtisodiy salohiyat, institutsional va hukumat

1 Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.



salohiyati, fiskal salohiyat hamda turli risklarga ta'sirchanlik ushbu to'rtta omilni tashkil etadi. Iqtisodiy quvvatni baholashda iqtisodiy salohiyat hamda institutsional va hukumat salohiyatini baholash bo'yicha olingan umumiy tahlil natijalari birlashtiriladi va bu natijalar fiskal salohiyat natijalari bilan umumlashtirilib, hukumatning moliyaviy salohiyati baholanadi. Ushbu natijalar esa turli risklarga ta'sirchanlik tahlili natijalari bilan birlashtirilib, umumiy xulosa olinadi. Umumiy reyting baholashdan oldin ushbu natijalarga yana qo'shimcha tahlillar qo'shiladi. Yuqoridagi omillarning umumiy tahlil natijalari birlashtirilgan holda emitentning umumiy reytingi baholanadi.

2019-yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro moliya bozorlaridan tashqi qarz mablag'larini jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-sonli² qaroriga asosan mamlakat ilk bor xalqaro moliya bozorlariga chiqdi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan, muddati 5 va 10 yilni tashkil etuvchi ikki transhli dastlabki suveren yevroobligatsiyalarini London fond birjasida joylashtirdi. 2019–2025-yillar davomida emissiya qilingan yevroobligatsiyalar bo'yicha statistika quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston 2019–2025-yillarda xalqaro moliya bozorlariga yetti marta AQSh dollarida suveren obligatsiyalar bilan chiqqan bo'lib, ularning umumiy hajmi qariyb 3,95 mlrd dollarni tashkil etadi. Dastlabki emissiyalar bo'yicha kupon stavkalari 3,7–5,38 % diapazonida bo'lgan bo'lib, bu davrda global foiz stavkalarining pastligi va mamlakat risk premiasiga nisbatan qulaylik mavjud bo'lganidan dalolat beradi. 2023–2025-yillardagi emissiyalar bo'yicha kupon stavkalarining 6,9–7,85 %gacha oshgani esa jahon moliya bozorlarida foiz stavkalarining keskin ko'tarilishi, geosiyosiy xatarlar hamda investorlar talabidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi AQSh dollarida emissiya qilingan suveren xalqaro obligatsiyalari (2019-2025)

T/r	Obligatsiyalar hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqargan sana	So'ndirish muddati	Reyting (Fitch)
1	500 mln USD	5.38%	10 yil	Fevral, 2019	Fevral, 2029	BB-
2	500 mln USD	4.75%	5 yil	Fevral, 2019	Fevral, 2024	BB-
3	555 mln USD	3.70%	10 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2030	BB-
4	635 mln USD	3.90%	10.25 yil	Iyul, 2021	Oktabr, 2031	BB-
5	660 mln USD	7.85%	5 yil	Oktabr, 2023	Oktabr, 2028	BB-
6	600 mln USD	6.90%	7 yil	May, 2024	May, 2031	BB-
7	500 mln USD	6.95%	7 yil	Fevral, 2025	Fevral, 2032	BB-

Muddati 5 yildan 10,25 yilgacha bo'lgan obligatsiyalar chiqarilishi davlat qarzi portfelini muddatlar bo'yicha diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Barcha emissiyalarning Fitch tomonidan BB– reytingida joylashtirilishi O'zbekistonning o'rta darajadagi, ammo barqaror kreditga layoqatligini aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi EUROda emissiya qilingan suveren xalqaro obligatsiyalari (2019-2025)

T/r	Obligatsiyalar hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqargan sana	So'ndirish muddati	Reyting (Fitch)
1	600 mln yevro	5.38%	3 yil	May, 2024	May, 2027	BB-
2	500 mln yevro	5.10%	4 yil	Fevral, 2025	Fevral, 2029	BB-

2-jadval ma'lumotlari O'zbekiston so'nggi yillarda suveren qarz portfelining valyuta tarkibini diversifikatsiya qilish maqsadida yevroda ham obligatsiyalar joylashtira boshlaganini ko'rsatadi. 2024-yilda 600 mln yevro, 2025-yilda esa 500 mln yevro hajmida, mos ravishda 3 va 4 yillik muddatlarga ega qimmatli qog'ozlar emissiya

2 <https://lex.uz/docs/-3836474>

qilingan. Kupon stavkalari 5,10–5,38 % diapazonida shakllanib, Yevrohududagi yuqori foiz stavkalari va mamlakat risk premiasini aks ettiradi. Har ikkala emissiyaning Fitch tomonidan BB– reytingida baholanishi investorlar uchun qabul qilinadigan, biroq ehtiyotkor risk darajasini bildiradi hamda O‘zbekistonning Yevropa moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xalqaro moliya bozorlarida innovatsion yondashuvni namoyon etib, Qozog‘iston amaliyotidan farqli ravishda o‘zining milliy valyutasida denominatsiyalangan yevroobligatsiyalarni London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirdi. Bu tashabbus O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan asosiy tamoyillarga — ya‘ni davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadlariga muvofiq amalga oshirildi.

Xususan, 2020–2021-yillarda milliy valyutada umumiy qiymati 4,5 trillion so‘mlik suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarilib, London fond birjasida joylashtirildi. O‘rta muddatli istiqbolda esa milliy valyutadagi suveren obligatsiyalar ulushini xalqaro bozor sharoitlariga mos ravishda oshirish rejalashtirilgan (3-jadval).

3-jadval. O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutada emissiya qilingan suveren xalqaro obligatsiyalari (2019–2025)

No	Obligatsiyalar hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqargan sana	So‘ndirish muddati	Reyting (Fitch)
1	2 trln so‘m	14.50%	3 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2023	BB–
2	2.5 trln so‘m	14%	3 yil	Iyul, 2021	Iyul, 2024	BB–
3	4.25 trln so‘m	16.25%	3 yil	Oktabr, 2023	Oktabr, 2026	BB–
4	3 trln so‘m	16.63%	3 yil	May, 2024	May, 2027	BB–
5	6 trln so‘m	15.50%	3 yil	Fevral, 2025	Fevral, 2028	BB–

3-jadval ma‘lumotlari O‘zbekistonning so‘nggi yillarda milliy valyutada ham suveren xalqaro obligatsiyalar emissiyasini boshlab, uni bosqichma-bosqich kengaytirayotganini ko‘rsatadi. 2020–2025-yillarda jami 17,75 trln so‘m hajmdagi 3 yillik obligatsiyalar joylashtirilgan bo‘lib, har bir emissiya Fitch tomonidan BB– darajasida baholangan. Kupon stavkalari 14–16,63 % diapazonida shakllanib, ichki inflyatsiya darajasi, Markaziy bank asosiy stavkasi va so‘mda joylashtirilgan aktivlar bo‘yicha talabni aks ettiradi. Milliy valyutadagi obligatsiyalar chiqarilishi davlatning valyuta xatarini kamaytirish, ichki investorlar bazasini kengaytirish va so‘m uchun xalqaro “benchmark” foiz stavkasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, emissiya hajmining o‘shishi so‘mda uzoq muddatli resurslarni jalb etish imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, davlat tashqi qarzining AQSh dollariga qaramligini kamaytirish maqsadida chiqarilayotgan xalqaro obligatsiyalar tarkibidagi valyuta diversifikatsiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Ya‘ni, 2019–2025-yillar oralig‘ida AQSh dollarida chiqarilgan obligatsiyalar hajmi 3,95 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, yevroda 1,1 mlrd dollarni, milliy valyutadagi obligatsiyalar umumiy hajmi esa 17,75 trln so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, O‘zbekiston tomonidan chiqarilgan ilk milliy valyutadagi suveren yevroobligatsiya BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishish yo‘lidagi dasturlarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu mablag‘larning asosiy qismi: 54 foizi sanoat, investitsiya va infratuzilma sohalariga, 22 foizi sog‘liqni saqlash tizimiga, 17 foizi esa ta‘lim va boshqa ijtimoiy yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, suveren kredit reytinglari O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvida markaziy rol o‘ynamoqda. 2018-yildan boshlab S&P, Fitch va Moody’s tomonidan reyting berilishi mamlakatning kredit tarixini shakllantirib, investorlar uchun ishonchli axborot signali vazifasini bajarmoqda.

2019–2025-yillarda O‘zbekiston 3,95 mlrd AQSh dollari, 1,1 mlrd yevro va 17,75 trln so‘m miqdorida suveren obligatsiyalar joylashtirgani reyting mavjudligi xalqaro kapital bozorlariga real chiqish imkonini berganini tasdiqlaydi. Dastlabki yillarda kupon stavkalarining 3,7–5,3 % bo‘lgani mamlakat risk premiasining nisbatan pastligini aks ettirgan bo‘lsa, 2023–2025-yillarda stavkalarining 7 %dan yuqorilashi global foiz stavkalari va geosiyosiy xatarlarning kuchayishi bilan bog‘liqligi aniqlangan.

Shu bilan birga, tashqi qarzning YalMga nisbati ayrim manbalarda 60 %ga yaqinlashayotgani (IMF ma‘lumotlari) fiskal barqarorlik va reyting uchun muhim xatar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining 5–6 % darajasida saqlanib qolishi, valyuta zaxiralari va institutsional islohotlar reyting barqarorligini ta‘minlayotgan asosiy omillar hisoblanadi.

Natijada, suveren kredit reytinglari O‘zbekiston uchun qarz mablag‘lari narxini pasaytirish, investorlar bazasini kengaytirish va davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy mexanizmiga aylanmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Burkanov, A.U. va Sindarov, F.Q. (2021) 'Suveren kredit reytinglarida O'zbekistonning o'rni yaxshilash imkoniyatlari', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, № 2 (mart–aprel).
2. Sindarov, F. (2022) 'Standart & Poor's Global reyting agentligi tomonidan O'zbekistonning reytingini baholash amaliyoti', Xalqaro moliya va hisob, № 1, fevral.
3. Cantor, R. & Packer, F. (1996) 'Determinants and impact of sovereign credit ratings', The Journal of Fixed Income, 6(3), pp. 76–91.
4. Kim, S.J. va Wu, E. (2008) 'Sovereign credit ratings, capital flows and financial sector development in emerging markets', Emerging Markets Review, 9(1), b. 17–39.
5. Afonso, A., Gomes, P. & Rother, P. (2011) 'Short- and long-run determinants of sovereign debt credit ratings', International Journal of Finance & Economics, 16(1), pp. 1–15.
6. Reinhart, C.M., Rogoff, K.S. & Savastano, M.A. (2003) 'Debt intolerance', Brookings Papers on Economic Activity, 34(1), pp. 1–74.
7. Kowalewski, O., Luitel, P. & Vanpée, R. (2025) 'Sovereign credit rating provision and financial development', Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, 101, 102153.
8. Budjetnoma 2026-2030. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
9. <https://www.spglobal.com/>
10. <https://www.fitchratings.com/>
11. <https://www.moodys.com/>
12. <https://www.imv.uz/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100